

“TASDIQLAYMAN”
Qashqadaryo viloyat statistika
boshqarmasi boshlig‘i
Sh. Tayloqov
2024-yil 15-mart

Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi to‘g‘risida nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – Boshqarma) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining markaziy apparati tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risida nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o‘rinlarda – Statistika agentligi) qaror va buyruqlari, mazkur nizom, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Boshqarma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan ko‘p yillik statistika dasturi hamda Statistika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan bir yillik statistika dasturi asosida amalga oshiradi.

5. Boshqarma qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘yicha faoliyatini Statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda – hududiy statistika organlari) bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Boshqarma o‘z faoliyatini Statistika agentligi direktori rahbarligida amalga oshiradi.

Boshqarma o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha Statistika agentligi direktorining o‘rinbosarlariga bo‘ysunadi.

Boshqarmaning ish rejasi Statistika agentligi direktori tomonidan tasdiqlanadigan Statistika agentligining ish rejalari asosida shakllantiriladi va direktorning o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalari Boshqarma boshlig‘i tomonidan bo‘linmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va direktorning o‘rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi.

2-bob. Boshqarmaning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasida rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlatish va amaliyotga joriy qilish;

foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish;

xalqaro darajada umumqabul qilingan qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan zaruratga ko'ra, belgilangan tartibda o'zaro integratsiyasini ta'minlash;

Agentlik markaziy apparatining tegishli boshqarmalari hamda hududiy statistika organlari bilan birgalikda qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini tashkil etish chora-tadbirlarini, ishlab chiqish va ularning yuqori darajada amalga oshirilishini ta'minlash;

qishloq xo'jaligi statistikasi sohasida milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol ish yuritish.

8. Boshqarma o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasida rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish natijalarini hisobga olgan holda soha rivojlanishining istiqbolli maqsadlari va yo'nalishlarini belgilaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg'or uslubiyotlari va tavsiyalarini joriy etish yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar, shu jumladan, sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha ko'p yillik va bir yillik statistika dasturlarining hamda metodologik ishlarning reja-jadvali ishlab chiqilishi, Statistika agentligi ish rejalarining shakllantirilishida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda amalga oshiradi va statistika dasturlari doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika uslubiyotlari yagonaligini ta'minlaydi, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari statistika uslubiyotlarini xalqaro tavsiyalarga muvofiqligi yuzasidan auditdan o'tkazadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda Statistika agentligi rahbariyatiga kiritadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganadi hamda xalqaro tavsiyalar asosida normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyotlarini ishlab chiqadi, tasdiqlatadi, joriy etadi va takomillashtiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha uslubiy nizom, tavsiya, qo'llanma, tartib, ko'rsatmalar ishlab chiqadi, tasdiqlatadi va amaliyotga joriy etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish asosida statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqadi, tasdiqlatadi va amaliyotga joriy etadi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullarini ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning o'zlari yig'adigan statistika kuzatuvlari shakllarini kelishishni tashkil etadi.

b) qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, tarqatish va e'lon qilish ishlarini amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda statistika dasturlarining bajarilishini ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha mamlakatni, uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining bajarilishi jarayonlari yuzasidan mavjud statistika ma'lumotlari asosida tahliliy axborotlar tayyorlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika ma'lumotlarini yig'ishni, statistika kuzatuvlarini, ro'yxatdan o'tkazishlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o'tkazishni tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning statistik hisob-kitoblarini amalga oshiradi hamda mamlakatdagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha respondentlarga elektron shakldagi statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish uchun maxsus axborot tizimidan bepul foydalanish imkonini yaratadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha respondentlarga ishonchli statistika ma'lumotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistika ma'lumotlarini taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha zarur choralarni ko'radi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika hisobotlarini yig'ish, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish hamda ularni tarqatish va e'lon

qilish jarayonlariga davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashuvini istisno qilish choralarini ko'radi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha ma'lumotlar bazasini, veb-saytlarni yangilab boradi, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir zarur tushuntirishlar beradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan statistika ma'lumotlari va metama'lumotlar almashinuvini keng yo'lga qo'yadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot va individual ma'lumotlardan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha o'z vakolatlari doirasida statistika organlari faoliyati jarayonlarida olingan xizmat, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashni ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha ish faoliyati jarayonlarida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini jamlash, tayyorlash va saqlash uchun topshirish ishlarini amalga oshiradi;

d) qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganadi va ularni qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasiga joriy etish choralarini ko'radi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirish yo'li bilan xolisona, sifatli va talab yuqori bo'lgan hisobot ma'lumotlari tayyorlanishini, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliligi bosqichma-bosqich oshirilishini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistika uchun zarur bo'lgan statistik tasniflagichlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi va yuritilishini ta'minlaydi, xalqaro standart tasniflagichlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha ochiq statistika ma'lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatish va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratish ishlarida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha boshqa mamlakatlarning rasmiy statistikani tayyorlovchilari va xalqaro tashkilotlar bilan ochiq statistika ma'lumotlarini o'zaro almashish ishlarini tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha milliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun rasmiy statistika ma'lumotlarining maksimal darajada ochiqligi va shaffofligini, shu jumladan, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirib borish ko'rsatkichlari xalqaro statistik to'plamlarda chop etilishini ta'minlash maqsadida xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish ishlarini ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, statistika ma'lumotlarining mazmuni va sifatini yanada yaxshilash maqsadida foydalanuvchilar o'rtasida taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlaridan qoniqish darajasini baholash bo'yicha so'rovlarda ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlarining manbalari, ularni tayyorlash usullari, ishonchliligi, shaffofligi, oshkorligi va sifati to'g'risida foydalanuvchilarni metama'lumotlar yordamida xabardor qilib boradi.

e) qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish va tahlil qilish maqsadida, zaruratga ko'ra, mavjud axborot tizimlarining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika ma'lumotlari bilan ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish darajasini oshirish, statistika organlarida foydalaniladigan axborot tizimlarini doimiy takomillashtirish, statistika ma'lumotlarining yagona bankini shakllantirish, ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar tarkibini kengaytirish va sifatini yaxshilashni ta'minlash ishlarida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida statistik ko'rsatkichlarning kengaytirilgan ro'yxatidan erkin foydalanish imkonini beruvchi statistika ma'lumotlari bazasini ishlab chiqish va yuritishda ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha o'zaro mos axborot tizimlari va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik tasniflagichlardan foydalanishni ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha internet resurslariga joylashtirish yo'li bilan statistika tasniflagichlari va ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida foydalanuvchilarni xabardor qiladi.

f) qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida o'z vaqtida aks ettirilishi sohasida:

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha Portalni yanada rivojlantirish va uning funksional imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha "yo'l xarita"larining ishlab chiqilishini va belgilangan tartibda ijrosini ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha Portalda e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar to'plamlari dolzarbligini doimiy monitoring qiladi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha Portalning funksional imkoniyatlari o'zgartirilishi to'g'risida undan foydalanuvchilarning xabardor qilinishini tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha mamlakatda ochiq ma'lumotlar sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

g) qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularning yuqori darajada amalga oshirilishini ta'minlash sohasida:

qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarini, ro'yxatdan o'tkazuvchi xodimlar guvohnomasi shaklini ishlab chiqadi va tasdiqlatadi;

qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish dasturlarini va ro'yxatdan o'tkazish savolnoma shakllarini ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirilishi to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishga jalb etiladigan xodimlarni tanlab olish va o'qitish tartibini belgilaydi va o'qitishni tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish natijalari milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun e'lon qilinishini ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish savolnomalari va boshqa ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi), yo'q qilinishi tartibini ishlab chiqadi.

h) qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha Statistika agentligi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturini ishlab chiqish hamda uning amalga oshirish ishlarida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha statistika sohasida kadrlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish ishlarini tashkil etishda respublika ilmiy va ta'lim muassasalari hamda xalqaro statistika institutlari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha vazirlik va idoralar xodimlarining statistika sohasidagi bilim hamda ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, tashkil etish hamda amalga oshirish ishlarida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha kadrlar malakasini oshirish jarayonlariga videokonferensaloqa tizimi va raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda masofaviy o'qitish tizimini samarali tashkil etish ishlarida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha xodimlarni ishga qabul qilishda lavozimlarga nomzodlarni ochiq tanlov asosida qabul qilishni amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, xodimlarning samarali mehnat qilishlari, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhofaza qilish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish choralari ko'radi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi xodimlari uchun lavozim va malaka darajalariga ko'tarilishda ularning mehnat faoliyati, irodaviy va axloqiy sifatleri, iqtidori va ko'nikmalarini xolisona baholashga asoslangan teng imkoniyatlar yaratadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi statistika organlari xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'radi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasida amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy va statistik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish ishlarida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi faoliyatini takomillashtirish maqsadida ilg'or statistik usullar va vositalar asosida innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqish va amalga oshirish choralarni ko'radi.

Boshqarma O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Boshqarmaning huquq va majburiyatlari

9. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Statistika agentligi markaziy apparati bo'linmalari va hududiy statistika organlaridan o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasida ishlarni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha Statistika agentligi rahbariyatiga takliflar kiritish;

statistika kuzatuv shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

hududiy statistika boshqarmalari tomonidan qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan va boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda ularning vakolatxonalari va filiallaridan) statistika hisobotlarini belgilangan tartibda olish hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasiga oid ishlarni olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek rasmiy statistik axborotlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasiga oid ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini tekshirish;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasidagi ma'lumotlarda xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish va yig'ma statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasiga oid masalalar yuzasidan xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, shuningdek xalqaro seminar va yig'ilishlarda ishtirok etish;

Statistika dasturi, statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, Statistika agentligining ish rejalari, Boshqarma ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha Statistika agentligi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Statistika agentligi boshqarmalari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

10. Boshqarma quyidagi majburiyatlarga ega:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

statistikaning asosiy prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Boshqarma xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

4-bob. Boshqarmaning tuzilmasi

11. Boshqarmaning tuzilmasi o'z ichiga Boshqarma boshlig'ini, shuningdek:

Qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi. Bo'lim tarkibiga bevosita boshqarma boshlig'ining o'rinbosari – bo'lim boshlig'i, bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassis kiradi;

Qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini statistik kuzatuvlari bo'limi. Bo'lim tarkibiga bo'lim boshlig'i, bosh mutaxassis, yetakchi mutaxassis va birinchi toifali mutaxassis kiradi;

Ekologiya statistikasi shu'basi. Shu'ba tarkibiga shu'ba mudiri va yetakchi mutaxassis kiradi.

12. Boshqarma va uning tarkibiga kiruvchi bo'limlar ishiga Boshqarma boshlig'i rahbarlik qiladi.

13. Boshqarma boshlig'i, boshqarma boshlig'ining o'rinbosari, bo'lim boshlig'i, shu'ba mudiri va xodimlari Statistika agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

14. Qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

qishloq xo'jaligi va ekologiya sohasi bo'yicha choraklik va yillik statistik hamda tahliliy malumotlarni tayyorlash va taqdim etish;

tahliliy jadvallar, press-relizlar, ma'ruzalar va statistik to'plamlarni tayyorlash, qishloq xo'jaligi va ekologiya sohasi masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar savolnomalarini to'ldirish; dinamik qatorlar ko'rsatkichlarini yuritish;

ma'lumotlar taqdim etish va axborot-tushuntirish tadbirlarini qo'shgan holda respondentlar va axborot foydalanuvchilari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish;

Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlarini va xalqaro statistik to'plamlar materiallarini qo'shgan holda qishloq xo'jaligi va ekologiya sohasida tahliliy axborotlarni shakllantirish jarayonida mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar keng doirasi uchun statistik axborotlarning imkon darajasida shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash;

BMTning qo'llanmalari va Xalqaro valyuta fondining Ma'lumotlarni tarqatish umumiy standartiga muvofiq statistik metama'lumotlar tizimini yaratish, yuritish va yangilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarda ishtirok etish.

15. Qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatini statistik kuzatuvlari bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha (kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash) statistik instrumentariylarni shakllantirish;

qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha axborotlarni statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar va muddatlar bo'yicha yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, chop etish va tarqatish;

qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha muhim indikatorlarni baholash va hisob-kitobini yuritish, barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari uchun ma'lumotlar tayyorlash;

qishloq xo'jaligi statistikasi axborotlarini shakllantirish masalalari bo'yicha hududlar miqyosida tegishli bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish va saqlashning zamonaviy usul va uslubiyatlarini keng joriy qilgan holda statistik kuzatuvlarni tashkil etish va umume'tirof etilgan xalqaro amaliyotga moslashtirib borish.

16. Ekologiya statistikasi shu'basi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

ekologiya statistikasi bo'yicha (kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash) statistik instrumentariylarni shakllantirish;

ekologiya statistikasi bo'yicha axborotlarni statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar va muddatlar bo'yicha yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, chop etish va tarqatish;

hududiy statistika organlari tomonidan ekologiya statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasi asosida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish;

ekologiya statistikasi bo'yicha statistika hisobot shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

ekologiya statistikasi bo'yicha axborotlarning mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlash hamda xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

5-bob. Boshqarma rahbarlari va xodimlarining javobgarligi

17. Boshqarma boshlig'i:

Boshqarmaga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bo'lim boshliqlari, shu'ba mudiri va mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, Boshqarmaga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Boshqarmaning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralari bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Boshqarmaning ish rejasi loyahasini ishlab chiqadi va direktorning o'rinbosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Boshqarma xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Statistika agentligining yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek, Statistika agentligi rahbariyatining topshirig'iga binoan Boshqarma tasarrufiga kiruvchi masalalar bo'yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi sohasida normativ va metodologik hujjatlarni va statistika kuzatuvlari shakllari loyihalarini ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Statistika agentligi direktori va uning o'rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq, tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'yicha uslubiy hujjatlarni qo'llash bo'yicha statistika bo'linmalarining rahbarlari va mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko'rsatadi;

Statistika agentligining va Boshqarmaning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

Boshqarma ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

Boshqarma kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

Boshqarma xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'riqnoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi.

18. Boshqarma boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi boshlig'i – Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari bajaradi.

19. Bo'lim boshlig'i:

bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ularning ishini muvofiqlashtiradi, bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Statistika agentligi va Boshqarmaning ish rejalarida ko'zda tutilgan masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

bo'lim mutaxassislari tomonidan ma'lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni, shuningdek, bo'limga yuklangan vazifalar bo'yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

statistika sohasida ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha bo'lim mutaxassislari tayyorlagan takliflarni umumlashtiradi;

bo'limga yuklangan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini amalga oshirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar, tashkiliy chora-tadbirlar yoki nazorat rejalarini tayyorlash va tasdiqlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

Xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelining barcha bosqichlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi;

Boshqarma boshlig'i bilan birga bo'lim faoliyatini takomillashtirish, statistika ishlari dasturini, statistika ishlarini ishlab chiqish dasturini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

bo'lim ishlarining samaradorligi darajasini oshirish, ish uslubi va metodlarini, uni tashkil qilishni yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

Boshqarmaning o'zi boshchilik qiladigan bo'limi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha markaziy apparat bo'linmalari va hududiy statistika organlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

xodimlar tomonidan davlat va tijorat siriga rioya qilinishini hamda bo'limga kiruvchi materiallarni va bo'limdan chiquvchi materiallarning nusxalarini saqlanishini ta'minlaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalarni muhokama qilishda idoralar, korxonalar va tashkilotlarda Statistika agentligi manfaatlarini ifodalaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqilishini (zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida) tashkil qiladi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va Statistika agentligi rahbariyatiga kiritadi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

20. Bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bo'lim bosh mutaxassisi bajaradi.

21. Bo'lim bosh mutaxassisi:

funksional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash, statistik instrumentariylarni shakllantirilishini, byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlanishini tashkil etadi;

muhim indikatorlarni baholaydi va hisob-kitobini yuritadi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va Internet tarmog'idagi materiallarni o'rganish asosida statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv shakllarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar berish;

Xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelining barcha bosqichlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi;

asosiy statistik ko'rsatkichlarning dinamik qatorlarini yuritadi va doimiy ravishda yangilab boradi;

statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bo'yicha dasturiy ta'minotlarni sinovdan o'tkazishda ishtirok etadi;

bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

22. Bo'lim yetakchi mutaxassisi, 1-toifali mutaxassisi:

funksional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjat loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib chiqadigan statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etilishini nazorat qiladi, olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi, ular asosida jamlanma ma'lumotlar jadvallarini shakllantiradi, asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlashda ishtirok etadi;

statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv shakllarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar berishda ishtirok etadi;

bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallar va ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

ish yuritishni olib boradi, Boshqarmada hujjatlarning aylanish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o'z vaqtida topshirishni ta'minlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.